

MALAY TILIDA SINONIM SO'ZLARNING VUJUDGA KELISH OMILLARI

Mamatkulova Mahliyo Baxtiyor qizi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo kafedrasi o'qituvchisi
Telefon: +99890 0392996
ilmumelayu2021@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada malay tilida sinonim so'zlarning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar ko'rib chiqildi. Malay va Yevropa tilshunos olimlari tomonidan berilgan nazariyalar atroflicha o'rganildi. Shuningdek, ularga tegishli misollar berib o'tildi.

Tayanch so'z va iboralar: sinonim so'z, o'zlashma so'z, sheva, lahja, savdo-sotiq.

Sinonim fenomeni har bir tilda mavjud. Biron bir xalq madaniyati yoki hayot tarzi sinonimlar vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi. Bir tilning boshqa bir tildan o'z so'z boyligini oshirishda farqli tomonlari bor hamda o'z lug'at boyligida allaqachon mavjud bo'lgan so'zlar sinonimining vujudga kelishida ham farqlar kuzatilib turadi. Malay tilida sinonimlarning vujudga kelishida bir necha omillar mavjud. Ular quyidagilar:

Tildagi o'zlashmalar

Haugen tildagi o'zlashmalarni quyidagicha izohlaydi: "Ma'lum bir tilda topilgan so'zlar boshqa tilda allaqachon paydo bo'lib bo'lgan". O'zlashma so'zlarni ifodalashda Amat Juhari (1993) tildagi o'zlashmalar boshqa tildan so'z olish yoki o'sha tildagi elementlarni olib, keyin u so'zni o'z tilidagi so'zga aylantirish demakdir deydi. Biroq qo'shimcha qilib shunday fikrlarni bildiradi: "O'zlashmalar atamasi noto'g'ri qo'llaniladi (*misnomer*) chunki o'zlashtirish degani, oldin nimanidir olish so'ngra uni qaytarishdir. Lekin lingvistik jihatdan o'zlashmalar bunday xususiyatga ega emas. Tilda o'zlashma so'zlar qaytarib berilmaydi". So'zlarni o'zlashtirish jarayoni ma'lum bir tilga boshqa so'z boyligi ko'p tildan so'zlar o'zlashtirish imkonini beradi. Ushbu sohada tadqiqot ishlari olib borgan tilshunos olimlar (*Haugen, Carmel, Weinreich*) fikricha, o'zlashma so'zlar ikki til o'rtasidagi aloqani, savdo-sotiq, mustamlakachilik orqali namoyon bo'lgan tarixiy faktlarni hamda o'zlashtirilgan, tilda paydo bo'lgan yangi konsepsiyalarni namoyon qilishda katta ahamiyatga egadir. Malay tilida *mustamlakachilik* va *savdo-sotiq* orqali kirib kelgan o'zlashma so'zlar bevosita tildagi so'z boyligini, sinonimlar sonini oshirdi. Malay tili ham turli xalq va madaniyat bilan to'qnashgandan so'ng chet tillaridagi unsurlarni o'zlashtirdi. Malay tiliga birinchi bo'lib Sanskrit tilidan so'zlar o'zlashgan. (Amat Juhari, 1993). Bu Kutai, Kalimantan (Shimoliy) dan milodiy 400-yilda Sanskrit tilida yozilgan yozuvlar aniqlangan (Moorhead, 1959). Bundan tashqari, Sumatra Orol, Yava, Champa, Vetnam va Filippendan topilgan malay yozuvlari misol bo'la oladi.

Yuqoridagi barcha yozuvlar Malay tilida yozilgan(so'zlar malaycha), lekin Sanskrit yozuvida yozilgan, ya'ni yozuv Hindistondan o'zlashgan. Ushbu yozuvlarda shuningdek, Sanskrit so'zlari ham uchrab turadi. XIII asrga kelib,*dengizchi* va *savdogarlar* Melaka orqali kelib, Semenanjung Tanah Melayuda o'z tillaridagi so'zlarni yoyishga harakat qilganlar. Savdo-sotiq va islom markazi bo'lgan Melakkaga xorijdan savdogarlar,diniy ulomolar tashrif buyurishi o'zlashma so'zlar sonining ortishiga sabab bo'lgan. Hind savdogarlari Sanskrit,tamil va hind tillarini yoyishgan.Shimoldan kelgan musulmonlar esa arab tilini,xitoyliklar ham o'zlarining ko'plab shevalaridagi so'zlarni olib kirishgan. Sanskrit tilidan o'zlashgan so'zlar malay xalqi tomonidan tez-tez muloqotda foydalanilgan.Bu so'zlar odatda muhim sohalarda,ya'ni hukumat va ma'muriyatda keng iste'molda bo'lgan:*berita,perdana menteri,suami,isteri,raja,bendahari,dosa*. Islom dinining Malay diyoriga kirib kelishi oqibatida malay tiliga arab tilidan so'zlar o'zlasha boshlandi.Shu yo'sinda Islomni yoyishda arab tilidagi diniy asarlar malay tiliga tarjima qilina boshlandi hamda diniy ta'limga mo'ljallangan madrasalar qad ko'tardi.Shunday qilib,arab tilidagi so'zlar asta-sekinlik bilan malay tilida ko'paya boshladi.Ular orasida:*akal,batal,hadiah,wajah,waktu,taubat va adab* so'zlari ham bor. Quyidagi jadvalda malay tilida boshqa tillarda o'zlashgan so'zlarning ayrimlari keltirilgan:

Hind tilidan o'zlashgan so'zlar	Tamil tilidan o'zlashgan so'zlar	Portugal tilidan o'zlashgan so'zlar	Golland tilidan o'zlashgan so'zlar	Ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar
Budiman	Cemeti	Almari	Duit	Skuad
Cuti	Apam	Meja	Engsel	Krisis
Kunci	Jodoh	Mentega	Kamar	Riben
Cukai	Katil	Gereja	Korupsi	Artikel
Kapas	keldai		Kursus	Generasi
Roti			senapang	

Malay tilida sinonim so'zlarni vujudga keltiruvchi omillardan yana biri quyidagi hisoblanadi:

Malay tilidagi sheva va lahjalar

Malay tilida sinonim so'zlarning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri bu sheva va lahjalardir.Sheva(dialect) so'zi barcha tillarda mavjud. Sheva so'zini Francais(1983) shunday izohlaydi:"*Jamiyatdagi ma'lum bir kichik guruhlardagina so'zlashiladigan va o'sha jamiyat tilining turlicha ko'rinishidir*".Collins (1986) ga ko'ra: " *Sheva- bu tilning bir ko'rinishi bo'lib,u tilning boshqa ko'rinishlaridan o'zining talaffuz qilinishi,ifodalash usuli,grammatikasi,lug'at boyligidan farq qiladi.Tilning bu ko'rinishi uning geografik joylashuvi hamda ijtimoiy atrof-muhitiga bog'liqdir*".Malay tili Semenanjung Malaysiada mavjud shevalar uchun ona til hisoblanadi.Semenanjung Malaysia bir necha shevalarni o'z ichiga oladi.Ular quyidagicha guruhlanadi:

A) Shimoliy hudud shevalari: *Kedah, Perlis, Pinang oroli shevasi, Shimoliy Perak* B) Markaziy hudud shevalari: *Janubiy Perak, O'rta Perak, Shimoliy Selongor* C) Sharqiy hudud: *Kelantan, Terengganu, Pahang shevasi*

D) Janubiy hudud shevasi: *Johor shevasi*

Shevalarga misollar: *pepatung-cakcibau (Perak shevasi), jalan raya-batas (Kedah shevasi), saya-ambo (Kelantan shevasi)*. Shuningdek, *Negeri Sembilan va Melaka* shevalariga ham mavjud.

Malay tilida sinonimlarning vujudga kelishida qabila lahjalaring ham o'rin katta. Ularga *Sarawak va Sabah lahjalari, Iban, Kadazan, Murut va Bajaularni* misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Malay qabila lahjalari ko'proq Sabah va Sarawakdagi etnik guruh (qabila)lar tomonidan foydalanilgan. Shu o'rinda malay tilida sheva va qabila lahjalarning farqi nimada degan savol tug'ilishi mumkin. Qabila lahjalari-bular ma'lum bir qabilaga tegishli bo'lib, u aynan bir hududda iste'molda bo'lmasligi ham mumkin. Bu lahjadan esa bir qabilaga mansub shaxslar foydalanadilar. Bunga misol o'rnida Malayziyadagi Iban lahjasini keltirish mumkin. Ular faqat bir hududda iste'qomad qilmasalar-da, lekin bu qabila a'zolari butun Sarawak bo'ylab tarqalgandir.

Lahjalarga misollar: *makan tengahari-merarau (nonushta qilmoq), makan malam-menggambi-kechki ovqatni yemoq, guna-guna-pugai (foydalanmoq), meronta-ronta-pugas (xizmatni o'tamoq)*

Xulosa qilib aytish mumkinki, malay tilida sinonim so'zlarning vujudga kelishida o'zlashma so'zlar hamda shevalarning o'rni ahamiyatlidir. Shuningdek malay tili lahjalardan ko'p hollarda *Sarawak va Sabah* hududlarida faol iste'molda qo'llaniladi. Shuningdek, o'zlashma so'zlar etimologiyasiga nazar tashlasak, eng ko'p so'zlar Sanskrit tilidan o'zlashganligini ko'rishimiz mumkin. Har bir tilning rivojlanishi undagi so'zlarni boyitish, foydalanishni kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Biroq inson aqli va harakati eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shunday ekan har bir individ o'z ona tilidagi mavjud bo'lgan sinonim so'zlarni bilishi hamda so'z boyligidagi bo'shliqni to'ldirishga harakat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Abdullah Hassan. 1982. Linguistik am untuk Bahasa Malaysia. Kuala Lumpur: Fajar Bakti
2. Amat Juhari Moain. 1993. Pengayaan Bahasa melalui proses meminjaman dan penyerapan. Jurnal Dewan Bahasa
3. Beg, M.A.J. 1981. Indo-Sanskrit loanwords in Malay. Kuala Lumpur: Champion Printers Sdn. Bhd
4. Brennan, H. 1992. Peminjaman Bahasa leksikal dalam Bahasa Melayu: Terj. Asiah Idris. Jurnal Dewan Bahasa
5. Halimah Hj. Ahmad. 1992. Pengaruh meminjaman Bahasa Inggeris terhadap Bahasa Melayu dalam bidang sukan. Jurnal Dewan Bahasa, 36
6. Kamus Dewan. 2007. Kuala Lumpur. Dewan Bahasa dan Pustaka, Edisi Ke-4.

-
7. Moorhead,F.J.1959.A History of Malacca and her Neighbours. London: Longman.
 8. Nik Safiah Karim.1996.Antara dialek dengan Bahasa buku.Pelita Bahasa